

# **Bolada muayyan diniy e’tiqodning shakllanishida dindor ota-onas shaxsi psixologiyasining tutgan o’rni.**

Xalqaro Nordik Universiteti  
Komilov Kamronbek Kamoljon o’g’li  
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi  
email:kamronbek613@gmail.com  
tel raqam:( 90 )015 75 17

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shakllanib bo‘lgan dindor shaxsning sotsial psixologik xususiyatlari, ya’ni ehtiyojlari, xulq-atvor motivlari, qadriyatli mo‘ljali, uning ongi va xulqidagi stereotiplarni o‘rganish haqida so’z boradi. Sotsial psixologlar M. Argayl va B. Beyt-Xallaminning, ota-onalarning diniy ustanovkalari va oilaning bolalar diniy e’tiqodiga ta’siri haqidagi ilmiy yondashuvlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье речь идет об изучении социально-психологических особенностей вновь сформировавшейся религиозной личности, то есть потребностей, мотивов поведения, ценностных целей, стереотипов в ее сознании и поведении. Освещены научные подходы социальных психологов М. Аргайла и Б. Бейт-Халламина о влиянии религиозных убеждений родителей и семьи на религиозные убеждения детей.

**Abstract:** This article deals with the study of socio-psychological characteristics of a newly formed religious person, that is, needs, behavioral motives, valuable goals, stereotypes in their mind and behavior. The scientific approaches of social psychologists M. Argyle and B. Beit-Hallamin about the influence of parents' religious beliefs and family on children's religious beliefs are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** Islom dini, musulmon, Qur’on, xulq-atvor, stereotip e’tiqod, konsepsiya, g’oya, ruh, ishonch, ong, tafakkur, shaxs, ichkiolam, ilk yosh davri.

**Ключевые слова:** Ислам религия, мусульманин, Коран, поведение, стереотип, вера, концепция, идея, дух, разум, мышление, личность, внутренний мир, раннее детство.

**Key words:** Islam religion, Muslim, Quran, behavior, stereotype, belief, concept, idea, spirit, faith, mind, thinking, personality, self, early childhood.

Inson dindor bo‘lib tug‘ilmaydi, balki sotsial muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shunday bo‘lib shakllanadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiyada shaxs makromuhiti (shu vaqtda mavjud bo‘lgan sotsial munosabatlar sistemasi, shaxs shu doirada yashaydi va faoliyat ko‘rsatadi) va uning mikro-muhitini (do‘stlar, qarindosh-urug‘lar, sotsial guruh a’zolari) ishda, dam olish, sport bilan shug‘ullanishda aloqada bo‘ladigan kishilarni bevosita o‘z ichiga oladigan sotsial muhitni bir-biridan farqlaydilar. Demokratik jamiyatda u yoki bu individ dindorligining shakllanish sabablarini tushunishda u mansub bo‘lgan mikromuhitni, xususan, unga dindor oilaning, diniy jamoa va ruhoniylarning ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Shakllanib bo‘lgan dindor shaxsining sotsial psixologik xususiyatlarini, ya’ni ehtiyojlari, xulq-atvor motivlari, qadriyatli mo‘ljali, ularning ongi va xulqidagi stereotiplarni o‘rganish g‘oyat muhimdir. Inson xarakteri, individning tevarak-atrofga munosabati, uning dunyoqarash asoslari shakllanadi. Bola bilan ota-onalar o‘rtasidagi munosabat bevosita sotsial-psixologik aloqalarning birinchi shakli bo‘lib, bola ana shunday munosabatlarga kirishar ekan, uning keyingi rivojlanishidagi juda ko‘p narsa ana shu munosabatlar mazmuniga bog‘liqdir. G‘arb dinshunoslarining e’tirof etishicha, oila bola dindorligining shakllanish jarayonida juda muhim rol o‘ynaydi.

Nemis psixologi V.Trillxaazning ko‘rsatishicha, bolaning oila doirasida yoki uning vositasida olgan diniy taassuroti “keyingi diniy hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”<sup>1</sup>.

Sotsial psixologlar M. Argayl va B. Beyt-Xallamining fikricha<sup>2</sup>, ota-onalarning diniy ustakovkali yangi avlod dindorligi shakllanishining muhim omilidir. Ota-onalar-ning bolalar diniy e’tiqodiga ta’siridan shu fakt ham guvohlik

---

<sup>1</sup> Фейербах Л. Избранные философские произведения : в 2т. / Фейербах Л. – Т.2. – М, 1955. – 486 с.

<sup>2</sup> Флоренский П. А. Столп и утверждение истин : в 2т. / Флоренский П

beradiki, ko‘pchilik bolalar ota-onalari konfessiyasi (dini)ni saqlab qoladilar. Olimlarning ta’kidlashlariga ko‘ra, oilaning bolaga ko‘rsatadigan diniy ta’siri bola mansub bo‘lgan sotsial mikro muhitning boshqa omillari: maktab, ommaviy axborot vositalari, qo‘shnilar va hokazolarga zid emas, balki ular bilan uyg‘unlashadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz oimlari yangi avlodda dindorlikni shakllantirishda oilaning roliga ko‘proq e’tibor bera boshladilar. Sotsiologik tadqiqotlar asosida ular yangi avlodga diniy e’tiqodni berishda oila muhim omillardan biri, degan xulosaga keldilar.

Agar inson bolaligidan boshlab dindor bo‘lsa, ishonch bilan aytish mumkinki, unda dindorlikning shakllanishida ota-onalar namunasi, oiladagi umumiyl muhit katta rol o‘ynagan. Psixologlar ko‘plab tadqiqotlar asosida shuni aniqladilarki, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun ota-onsa shubhasiz va mutloq avtoritet hisoblanadi. Bola muttasil ravishda va ko‘pincha o‘zi anglamagan holda ota-onalarining xatti-harakatlari, xulq-atvori va ularning so‘zlariga taqlid qiladilar.

Ota-onalar tomonidan butun yer yuzini boshqaradigan, odamlarni gunohi uchun jazolanadigan oliy mavjudot sifatidagi Xudo haqida gapiradigan diniy oilada bolada dindorlikni shakllantirishga imkon beradigan umumiyl sotsial- psixologik vaziyat yaratiladi. Ota-onalar yoki katta yoshdagি qarindosh-urug‘lar ongli ravishda va aniq maqsad bilan bolalarni diniy ruhda tarbiyalaydigan, jumladan, ularni namoz o‘qishga, ro‘za tutishga o‘rgatadigan, Qur’on o‘qiydigan va uning mazmunini tushuntiradigan oilalarda bolalarning diniy xulq-atvori yana ham intensiv (jadal) shakllanadi. Dindorlikning shakllanishi uchun qulay imkoniyat yaratadigan bolalar psixikasining psixologik xususiyatlarini o‘rganish ancha murakkab muammo hisoblanadi. Eng avvalo, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun himoyasizlik, chorasizlik va ota-onaga qaramlikni his etish xosdir. Shu sababli ham ularda ota-onalarning dindorlik ta’siriga qarshilik ko‘rsatish mavjud bo‘lmaydi. Kichik yoshdagи bolalar ota-onalari nimani o‘rgatsa, o‘shanga isho-nuvchan bo‘ladi, uni ularda shaxsiy tajriba va bilimning mutlaqo yo‘qligi bilan izohlash mumkin. Ular uchun taqlid qilish hosdir. Taqlid qilish tashqi taqliddan ichki, ixtiyorsiz taqliddan

ixtiyoriy taqlidga o‘zgarib, murakkab yo‘lni bosib o‘tadi.<sup>3</sup>

Bolada taqlid asosida asta-sekin nafaqat diniy xulq-atvor stereotiplari, balki ayrim diniy obrazlar va tasavvurlar elementlari ham shakllanadi. Bolalar ta’sirlanuvchandir, ular har qanday tashqi qo‘zg‘ovchilarni faol idrok etadilar va chuqur kechiradilar, bu esa ularning sig‘inish harakatlari bilan bog‘liq diniy obraz va tasavvurlarni o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. Masalan, bobo-buvilarning namoz o‘qiyotganlarida nabiralarining ular orqasida turib, amallarini takrorlashlari, ularning hatti-harakatlarini kuzatishlarini ko‘p bora eshitganmiz yoki guvohi ham bo‘lganmiz.

Bolalar psixikasi xususiyatlarining bu tasnifi qay darajada to‘liq ekanligi, ularni guruhlarga bo‘lish qanchalar muvaffaqiyatli ekanligini analiz qilishga kirishma-gan holda faqat umumiy metodologik prinsipni ta’kidlaymiz. Unga ko‘ra, bola psixikasining yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlari ularda dindorlikning shakllanishi uchun maj-buriy determinantlar emas, balki faqat imkoniyat va shart-sharoitlardir.

Ilk yosh davrida hali haqiqiy dindorlik bo‘lmaydi. Maktabgacha yoshdagি bola tabiiylikni fantastikadan farqlay olmaydi, uning diniy ko‘nikmalari tashqi xarakterga ega bo‘ladi. Bola dindorligining shakllanish jarayonida uni qurshab olgan so‘zlashuv (til) muhiti katta rol o‘ynaydi. Bola juda kichik yoshidanoq tilni egallay boshlaydi. U diniy oilada diniy mavzudagi so‘zlarga duch kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, inson hayoti davomidagi bilimlarini atrofdagi odamlar ta’siri orqali oladi. Shunday ekan, uning diniy tasavvurlari, diniy tushunchalari, diniy e’tiqodi va qarashlari ijtimoiy muhitidagi oilasi, yaqinlari, qarindoshlari hamda boshqa insonlarning bevosita va bilvosita ta’siri natijasida shakllanishi yuqorida keltirilgan tajriba va nazariyalarda o‘z isbotini topgan. Amerika Milliy Sog’liqni saqlash tadqiqot markazida faoliyat ko‘rsatuvchi Devid B. Larson va uning guruhi olib borgan izlanishlarga ko‘ra, dinga ishonuvchi va ishonmaydigan amerikaliklar bir-biri bilan taqqoslanganda juda ajoyib natijalar

---

<sup>3</sup> Фрейд З. Будущее одной иллюзии // Сумерки богов // сост. и общ.

qayd etildi. Misol uchun, dindor odamlar dinga kam e'tiqodli yoki umuman e'tiqodsiz odamlarga qaraganda 60% kamroq yurak xastaligi bilan og'riydarlar, ular orasida o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichi 100% kam, ular yuqori qon bosimining ancha past darajalari bilan og'riydarlar.

Izlanishning natijalariga ko'ra, dinga e'tiqodsiz kishilar e'tiqodli kishilarga qaraganda ikki martagacha ko'proq oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'riydarlar va ularning nafas yo'llari xastaliklaridan o'lish darjasini e'tiqodli insonlarga nisbatan 66% ko'proq ekan. Dindan xoli, dunyoviy psixologlar bunga o'xshash raqamlarga «Psixologik ta'sirlar» deb izoh berishadi. Bu shuni anglatadiki, dinga e'tiqod odamlarning ruhini ko'taradi va bu ularning sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ehtimol, bu tushuntirish chindan ham to'g'ridir, ammo bu mavzu chuqurroq o'r ganib ko'rilganda bundan ham qiziqroqxulosalar yuzaga keladi. Alloha imon keltirish boshqa har qanday psixologik ta'sir ko'rsatishlardan kuchliroqdir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Фейербах Л. Избранные философские произведения : в 2т. / Фейербах Л. – Т.2. – М, 1955. – 486 с.
- 2.Флоренский П. А. Столп и утверждение истин : в 2т. / Флоренский П
3. Фрейд З. Будущее одной иллюзии // Сумерки богов // сост. и общ.
- 4.Alimov X.G. Din psixologiyasi; Toshkent. 2019-yil.
5. Allport G. The Individual and his Religion / Allport G. – N.Y., 1950. – P. 141–142.
- 6.Arterburn S. & Felton J. “Toxic Faith: Understanding And Overcoming Religious Addiction”, Fordham Univercity press. N.Y., 1992.
- 8.Argyle M., Belt-Hallalmi B. The Social Psychology of Religion L, – Boston, 1975.
- 9.Argyle, M. Psychology of religion. – Canada: Routledge West 35th Street, New York, 2000. – 570 p.
- 10.Andreeva G.M. ‘Ijtimoiy psixologiya” Moskva 2001y.
- 11.A. Akramova "Ijtimoiy psixologiya" o`quv qo`llanma. Tdiu 2008
- 12.Adizova T.M. O`quvchilarning shaxslararo munosabatlari psixologik
- 13.Борунков Ю. Ю. Структура религиозного сознания / Борунков Ю. Ю. – М. : Прогресс, 1991. – 240 с.



